

SARMOYALASH VA SARMOYALASHNI AMALGA OSHIRISH BOSQICHLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10258966>

Farangiz Egamberdiyeva

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan Filiali

TOU N21-UA talabasi

Annontatsiya

Ushbu maqolada sarmoyalash bugungi kunda qanday amalga oshirilishi va uning ushbu jihatlarini aniqlab fikr yuritish. Hamda ayollarda sarmoyalashni amalga oshirish jarayonlari qandayligi xususida tuli xil misollar keltirildi.

Kalit so'zlar

ustuvor vazifalar, ko'chmas mulk, aktiolar, pul va pul oqimlari, omonat.

Sarmoyalash - jamiyatdagi shaxslar tomonidan o'z mablag`lari hisobidan bino-inshoot , uy, do'kon kabi ko'chmas mulklarni sotib olib, unga egalik qilish orqali aktiv hisobida har oyda undan pul topish orqali daromad olishidir.

Bugungi kunda har bir shaxs o'z extiyojlaridan ortgan holdagi mablag`laridan foydalangan holda sarmoyalashni amalga oshirishi mumkin. Eng asosiy jihatlaridan biri jamiyatdagi barcha shaxslar ya'ni erkak va ayollar uchun ham birdek amalga oshirish imkonining borligidir. Ya'na boshqa bir muhim jihatlaridan biri sarmoyalash insondan ko'p kuch, vaqt va mehnat talab qilmaydi. Insonlar qanday ish bilan shug`ullanishidan qat'iy nazar sarmoyalash ular uchun doimiy tarzdagi daromad manbai bo'lib xizmat qila oladi.

Sarmoyalash ko'chmas mulkdan tashqari banklarga omonat qo'yish, turli xildagi kompanyalarning aksiyalarini yoki qimmatbaho qog`ozlarini sotib olish orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Masalan, Ijaraga berish uchun ko'chmas mulk sotib oldingiz. U 150 ming dollar turadi. Uning boshlangich to'lovi 20 foizni ya'ni 30 ming dollarni tashkil qilsa. Har oy siz 300 ming dollar pul oqimiga ega bo'lasiz . Bu yillik 3,6 ming dollar. Agar yillik pul oqimini qo'yilgan vositaga bo'lsak sarmoyalangan mablag`daromadi kelib chiqadi yani 3,6 ming dollar bo'lingan 30 ming dollarga shunda sarmoyalangan mablag`daromadi 18 foizga teng bo'ladi⁴⁹.

⁴⁹ Raxmanov Z.Y., Qaxxorov A.J., Daminov F.M., Strategik boshqaruv: o'quv qo'llanma

Aksiyalar bo'yicha misol qilib ko'rsak. Siz aksiyani 2,5 ming dolarga sotib olasiz. U sizga yillik 100 dollar miqdorida ulush keltiradi. Bu holatda sarmoyalangan mablag'daromadi 4 foizni tashkil qiladi.

Endi hozirgi kundagi omonat raqamlari bilan ko'rib chiqsak belgilangan daromad 2 foizni tashkil etadi. Agar siz xisob raqamizga 1000 dollar qo'ysangiz bank sizga 20 dollar miqdorida to'laydi.

E'tibor berish kerak bo'lgan ya'na asosiy masalalardan biri sarmoyalashda aktivlarga ega bo'lishdan oldin e'tiborni ikki narsaga qaratish lozim: birinchisi-pul oqimi; ikkinchisi-sarmoyaga tashlangan mablag'daromadi. Sarmoyalangan mablag'daromadi nima, boshqacha qilib aytganda bu mablag'lar siz uchun qanchalik jon kuydirib ishlaydi. Sarmoyalashda mablag'ning daromadini turlicha yo'l bilan o'lchab aniqlash mumkin. Bu formulalarda sarmoyalangan mablag'hisoblanayotganda amortizatsiya ham hisobga olinadi. Boshqasida pul oqimidan kelgan pulning ya'na sarmoyalaniishi. Odatda sarmoyalangan mablag'ning daromadini aniqlash xar yili foizlarda kuzatiladi va formula quyidagicha bo'ladi; pul oqimi sarmoyalangan vosita ya'ni mablag'ga bo'linadi bu esa sarmoyalangan mablag'dan kelgan foydaga teng bo'ladi. Shuning uchun ham hamma e'tiborni pul oqimiga qaratish, sarmoyalangan mablag'daromadining "naqd pulga naqd pul" siyosatini ko'rsatadi va pulingiz siz uchun yaxshi ishlayotganini ko'rsatadi.

Moliyaviy mustaqillikka erishish uchun yutuq formulasi juda oddiy. Faqat ayollar o'zlari ishonib qolishgan turli xil baxonalardan qochishi zarur. To'g'ri ayollarning qiladigan vazifalari ko'p, ayol kishi bolalariga g'amxo'rlik qilishi, birga dars tayyorlashi, uy ishlariga vaqt ajratishi, agar ishlasa ishga ham vaqt ajratish kabi turli xil mas'uliyatlar. Ammo biz o'zimiz uchun zarur bolgan vaqtni hamisha topa olamiz, buning uchun insonda xohish va harakat bo'lsa bo'lgani.

Moliyaviy mustaqillikka erishish va sarmoyalash ayollardan ko'ra erkaklar yaxshiroq kabi g'oyalarni ham yoqlash, sizni bu ishni boshlashda sizni kimgadir qaram qilib qo'yishi mumkin. Bunday bo'lmasligi uchun pullaringiz nazoratini oz qo'lingizga olishingiz zarur.⁵⁰

Bunda birinchi qadam ta'lim. Biror bir soxaga kirishdan yoki bir ishni boshlashdan oldin sizda shu ish haqida yetarlicha bilim va maslahatlar bo'lishi zarur. Har bir narsaning siljish nuqtasi bo'ladi, shuningdek sarmoyalashni ham bor narsalardan boshlash mumkin. O'qib o'rganish shu soxa haqida yetarlicha bilim

⁵⁰ Z.Y. Raxmanov, A.J. Qaxxorov, F.M. Daminov. – Toshkent: "Tafakkur-bo'stoni", 2018.-152 b.

ko'nikmaga ega bo'lganizdan so'ng sarmoyalashning qaysi bir yo'nalishidan ketishni aniqlay olasiz va bunda sizga quydagilar asqotishi mumkin;

-Pul va uni sarmoyalash haqida o'rganayotganlar va malakali sarmoyadorlar uchun yozilgan kitoblarni o'qing .

-Audio yozuvlarni eshiting, mashinada ketayotib ham ularni tinglang . Shaxsni rivojlantirish uchun pulni boshqarish mavzusi bo'lishi mumkin . Muvaffaqiyat yo'lidagi har qanday boshqarish siz uchun asosiy rolni o'ynaydi.

-O'rganish uchun seminarlar, kurslarga qatnashing, xatto ayollar uchun ishlab chiqilgan maxsus kurslar bor.

-Biznes haqidagi nashrlarga obuna bo'ling. Bu orqali siz yashab turgan joyingizdagi sarmoyalashlardan xabardor bo'lasiz.⁵¹

-Ko'chmas mulk brokerlari shu ishi bilan shug'ullanib kelgan ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan brokerlar bilan axborot almashishga harakat qiling, ko'p hollarda yaxshi axborotni muvaffaqiyatli broker berishi mumkin.

-Ammo bugungi kunda sizga muvaffaqiyatli axborot bera oladigan brokerdan yomon brokerlarni uchratish va yomon vaziyatga tushib qolmaslik uchun ular haqida tanish-bilishlaringizdan so'rab bilib oling.

-Agar siz ko'chmas mulk sarmoyasi bilan qiziqib shug'ullanishni xoxlasangiz yashash joy bo'yicha shug'ullanadigan broker bilan emas sarmoyalash bilan shug'ullanadigan brokerga murojaat qiling. Chunki, birinchi brokerni vazifasi sizga uyni sotish bo'ladi.

-Agar sarmoyalash bilan shug'ullanadigan brokerlar bilan ishlasangiz, bunday inson sizning ehtiyojlaringiz va qiziqishlaringizni yaxshi tushunadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qimmatli qog'ozlar yoki ko'chmas mulk sotib olib uni ijaraga berish jins tanlamaydi. Faqat bu ishni qilish insondan ozgina mehnat va sarmoya tikishni talab qiladi xolos.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Raxmanov Z.Y., Qaxxorov A.J., Daminov F.M., Strategik boshqaruv: o'quv qo'llanm.

Z.Y. Raxmanov, A.J. Qaxxorov, F.M. Daminov. - Toshkent: "Tafakkur-bo'stoni",2018.-152 b.

Kim Kiyosakiy ., Boy ayol (Sarmoyalashda ayollarning boshqaruvi) zamonaviy ayollar uchun.

⁵¹ Kim Kiyosakiy ., Boy ayol (Sarmoyalashda ayollarning boshqaruvi) zamonaviy ayollar uchun.

Khakimov, J. B., & Kholmirezayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).

Холмирзаев, У. А. (2022). ҚИСКА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Архив научных исследований*, 2(1).

ХАКИМОВ, Б., ТАЛАБОЕВ, Х., & ХОЛМИРЗАЕВ, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.

Khakimov, B., & Kholmirezayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.

Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.

Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).

Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.

Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 34-39.

Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.

Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.

Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.

Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.

Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.

Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIVAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.

Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQLISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.

Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). IMPROVING THE CLASSIFICATION OF FINANCIAL ASSETS ACCORDING TO THE ECONOMIC CONTENT. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.

Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. *Молодой ученый*, (51), 435-437.

Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. *Мировая наука*, (2 (47)), 24-27.

Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 730-735.

Kholmirzaev, A. (2020). Ways of small business development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 162-167.